



UO‘K: 316.334:659.47

SIYOSIY PIAR (PR)NING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI
РОЛЬ ПОЛИТИЧЕСКОГО ПИАРА (PR) В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА
THE ROLE OF POLITICAL PR IN SOCIETY DEVELOPMENT

Dexkanov Narimon Burxonjonovich 

Namangan davlat universiteti dotsenti, siyosiy fanlar doktori

Annotatsiya

Maqolada saylov kampaniyalarida kommunikativ jarayonlar, shaxslararo munosabatlarni kuzatishda siyosiy PRning o‘rni tadqiq etilgan. PR-texnologiyalar va ommaviy axborot kommunikatsiyalarining eng muhim funksiyalaridan biri jamiyatning siyosiy madaniyatini yuksaltirish ekanligi aniqlangan. Muallif ommaviy axborot vositalarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rolini aniq misollar asosida ochib berilgan.

Аннотация

В статье исследуется роль политического пиара в наблюдении за коммуникативными процессами, межличностными отношениями в избирательных кампаниях. Проанализировано и выявлено, что важнейшей из функций PR технологий и общественно-информационных коммуникаций — это повышение политической культуры общества. Также, роль общественно-информационных средств в социально-политической жизни общества раскрыта на основе примеров.

Abstract

This article highlights the importance of political PR in communicative processes, controlling individuals, and election campaigns. One of the most important functions of PR technologies and mass media communications is the analysis of the role of the political culture in the modernization of society. Also, it is based on examples of the media's role in the social and political life of the society.

Kalit so‘zlar: siyosiy PR, ommaviy kommunikatsiya, elektron hukumat, senzura, siyosiy menejment, PR texnologiya, manipulyatsiya, siyosiy mentalitet, siyosiy marketing, siyosiy qaror.

Ключевые слова: политический PR, общественная коммуникация, электронное правительство, цензура, политический менеджмент, PR технология, манипуляция, политический менталитет, политический маркетинг, политическое решение.

Key words: political PR, mass communication, e-government, censorship, political management, PR technology, manipulation, political mentality, political marketing, political decision.

KIRISH

Bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan keng miqyosli islohotlar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Biz yangi O‘zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug‘vor maqsadni o‘z oldimizga qo‘yganmiz. Bu borada “Jamiyat — islohotlar tashabbuskori” degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda.

Islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo‘lishiga erishmog‘imiz lozim” [1].

Albatta, jamiyatda aholining huquqiy savodxonligi va siyosiy madaniyati yuksalishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda esa siyosiy PR, ya'ni jamoatchilik bilan aloqa aholi ongiga ta'sir etuvchi eng kuchli va qulay vositaga aylanmoqda. PR siyosiy jarayonlarda, ommaviy ong faoliyatida strategik o‘rin tutadi. Siyosiy PR ommaviy ongni boshqaradi, uning yo‘nalishini belgilaydi.

O‘zbekistonda siyosiy PR hodisasining keng ommalashuvi 1996 yilda boshlangan. O‘sha yilning may oyida mamlakatimiz jahonning eng yirik kompyuter aloqa tizimi bo‘lgan “Internet” bilan rasmiy aloqa o‘rnatdi [2, B.10]. Endilikda mamlakatimiz aholisining internet orqali jahon axborot olamiga kirishi, kundalik voqealardan tezkor xabardor bo‘lishi ta'minlandi. Bugun hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin bo‘lib qoldi.

SIYOSAT

Internet kirib kelishi bilan davlatning axborot sohasidagi monopoliyasiga tabiiy ravishda barham berildi, asta-sekin axborot iste'moli sohasida bozor iqtisodiyoti elementlari shakllandi. Senzura yoki «norasmiy senzura» degan davlat institutlariga o'rin qolmadi.

Ammo buning ijobiy va salbiy jihatlari bor: ijobiy jihati – insonning ob'ektiv, xolis axborotga ehtiyojini ta'minlash uchun sharoit va imkoniyat yaratilishi bo'lsa, salbiy jihati – milliy mustaqilligimizga, xalqimiz mentaliteti va tarixiy taraqqiyotiga, milliy o'zligiga xavf soluvchi begona ma'lumotlar ekspansiyasi, internet orqali interventsiasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Insoniyat XXI asrga kelib axborotlashgan jamiyat bosqichiga o'tdi. Buni xalqaro tashkilotlar ham e'tirof etmoqda. Masalan, 2006-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "17 may – Xalqaro axborotlashgan jamiyat kuni" deb e'lon qilindi. Jamiyat hayoti deyarli barcha sohalarining kompyuterlashuvi va axborotlashuvi hozirgi vaqtda axborot inqilobi yuz berayotgani hamda axborotlashgan jamiyatning sifat jihatlari va mezonlari haqida so'z yuritishga imkon bermoqda.

Axborotlashgan jamiyat o'z funksiyalarini texnologik, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy tabiatga ega qator omillar ta'sirida amalga oshiradi. Ular ichida eng asosiy va yetakchisi, bizning fikrimizcha, iqtisodiy omildir.

Iqtisodiy omil hal qiluvchi kuch bo'lib, iqtisodiyotning tovar, xizmat ko'rsatish, qo'shimcha qiymat yaratilishi va aholining ish bilan bandligini belgilovchi asosiy resursi (manbai)dir. PR texnologiya pirovard natijada iqtisodiy omilga borib taqaladi, u bilan gohida bevosita, gohida bilvosita aloqada bo'ladi.

Ijtimoiy omil PR texnologiya ta'sirida insonning "axborotga oid ongi"ni, uning sifat darajasini, turmush sifatini belgilash ko'rsatkichidir. Bu ko'rsatkich ijtimoiy ong rivojlanishining nafaqat indeksi va indikator, balki uning faollashuvi uchun "katalizator" vazifasini ham bajaradi [3, B. 65–69].

Siyosiy PR ayniqsa saylov kampaniyalarida elektoratning ongini zabt etishda qo'l keladi. Ommaviy kommunikatsiya jarayonlarida, saylovoldi kampaniyalarida odatda siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatiladigan nomzodlar elektoratga u yoki bu partiyaning mafkurasini taklif etadi va shu orqali ko'pchilik aholi ovozi olishga harakat qiladi. Bu an'anaviy saylov jarayonlariga xos jihatdir.

Bugun ahvol butunlay o'zgargan, siyosiy raqobat maydonida imijmeyking texnologiyalari, siyosiy PR, mutlaqo yangi usul va vositalar, zamonaviy siyosiy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi zamon saylov texnologiyalari va siyosiy PR bo'yicha ko'zga ko'ringan mutaxassis J.Segella bu borada: "Partiyani emas – insonni, g'oya yoki mafkurani emas – kelajakni, o'tmishni, dasturni emas – loyihani reklama qilish kerak" [4, B. 540], deydi. Bu so'zlarda jon bor, albatta. Aslida, siyosiy soha iqtisod, madaniyat, huquq, ta'lim va tarbiya sohalarining asosidir. Siyosiy boshqaruv bo'lmasa, u yoki bu sohada unum, yaxshi natija bo'lmaydi.

PR-texnologiyalar jamiyat hayotini boshqarish, nazorat qilish va muayyan maqsadlar tomon yo'naltirishning zamonaviy usul va vositasiga aylandi. Hozirgi vaqtda siyosiy boshqaruv ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Biroq butun jamiyatni boshqarish uchun ommaviy axborot vositalari siyosiy lashishi lozim. Bu esa – mutlaqo mumkin bo'lmaydigan, amalga oshmaydigan ish, chunki siyosat bilan jamiyatning faqat muayyan qatlamlarigina shug'ullanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, hatto rivojlangan mamlakatlarda ham aholining uchdan bir qismigina siyosatga qiziqadi. Amerikaliklar buni allaqachon anglab yetib, "ijtimoiy jurnalistika"ni rivojlantira boshladilar. AQShning Virjiniya shtatidagi matbuot organlaridan biri "Virginion-Pilot"ning ta'kidlashicha, "siyosiy ishtirok" atamasining avvalgi ma'nosini qaytarish lozim [5, B.20].

Ommaviy kommunikatsiya vositalari asosan ommaviy auditoriya va uning ehtiyojlariga xizmat qiladi. Shuning uchun O'zbekiston sharoitida siyosiy PR qator muammolar, birinchi navbatda, inson ruhiyati, psixologiyasida o'tmish qoldirgan "chandiqlardan xalos bo'lish, siyosatga, davlatga ishonch hissini shakllantirish bilan bog'liq.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yilda boshlangan xalq bilan muloqot siyosati aynan siyosiy "PR"ni shakllantirishga, davlat insonga begona emas, balki, aksincha, uning tayanchi, hayoti, huquq va erkinliklarining ishonchli kafolati ekanligini nafaqat uqtirish, xalqning ishonchini qozonish, ishonchni amalda qaror toptirishga qaratilgan siyosatdir.

Shu o'rinda D.Muitovning "axborot asri o'zbeklarning tafakkur tarzi, millat xarakterini isloh qilish... lozimligini yana bir bor ko'rsatmoqda" [6, B. 92] degan fikriga to'liq qo'shilish mumkin. Bugungi o'zbek mentaliteti, aniqrog'i, uning siyosiy mentalitetini shakllantirishda siyosiy PR-

texnologiyalarning “spin-texnologiya”, “spin-master”, “spin-doktor” kabi usullaridan foydalanishning ahamiyat katta. Bunda PR-texnologiyani siyosiy menejment va siyosiy marketing hodisalarini hisobga olgan holda qo'llash samarali bo'ladi.

Shuningdek, nemis mutaffakiri F.Nitsshening qadimgi yunon fani va madaniyatiga, olamni bilish darajasiga bergan bahosini eslash joiz: “Greklar ... chuqurlikdan sirtida edilar” [7, B. 496]. Bu bilan F.Nitsshe yunonlarning ko'proq illyuziya, afsona va mazmunga emas, balki shakl, belgiga moyilligini ta'kidlamochi bo'ladi, har qanday tashqi hodisaning ichki, hali idrok etilmagan mohiyat bilan uzviyligiga sha'ma qiladi. Sirtidan qaraganda, Nitsshening ushbu paradigmasi yuqorida ifodalangan muammo va savolga aloqasizdek ko'rinadi. Aslida esa, axborot jamiyatida, axborotning globallashuvi sharoitida muammoga ilmiy yondashuvsiz milliy o'zlikni, milliy mustaqillikni ta'minlash mushkul.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mamlakatimizda XX asrning 90-yillaridan e'tiboran turli sohalarda tub o'zgarishlar, ilmiy tilda ifodalaganda, modernizatsiya, liberallashtirish va demokratlashuv jarayonlari kuzatilmoqda. Ayrim mutaxassislar “o'tish davri” xususida ham so'z yuritadilar. Darhaqiqat, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan totalitar jamiyatdan yangi demokratik jamiyatga o'tish tez kechadigan jarayon emas. Ijtimoiy ongda, binobarin, individual ong darajasida ham eski siyosat va mafkura, eski boshqaruv usulining ta'siri uzoq saqlanib qoladi. O'tmish qadriyatlarini turli da'vat, shior va buyruqlar bilan isloh qilish mushkul ish ekanligi, hali eski siyosiy madaniyat va siyosiy psixologiya jamiyatda uzoq vaqt saqlanib qolishi, buning uchun ta'lim va tarbiya sohalarini yangilash zarurligi ma'lum.

Demak, eski siyosiy ong va siyosiy madaniyat o'rtasida o'ta muhim hodisa, ya'ni siyosiy jarayon mavjudligi ma'lum bo'ladi. Siyosiy jarayonga siyosiy madaniyat orqali qarash va yondashishning afzalligi shundaki, biz taklif etmoqchi bo'lgan siyosiy PR-texnologiyalar siyosiy jarayonni nafaqat qayd etish, balki muayyan maqsad tomon yo'naltirish imkoniyatini ham yaratadi. Taniqli siyosiy texnolog K.Fennerning ta'biricha, bunday yondashuv fuqarolarning asosiy qadriyatlari, bilim va emotsional aloqalarini, shu bilan birga, hokimiyat va siyosiy tizimga munosabatlarini aniqlashda yordam beradi [8, B. 70]. Buning boisi siyosiy PR-texnologiyalar va ommaviy kommunikatsiya jarayonlari bir-biridan alohida mavjud emasligi, biri boshqasini siyosiy madaniyat unsurlari orqali harakatga keltirishi va muayyan maqsadlar tomon yo'naltira olishidir.

Metodologik jihatdan qaraganda, siyosiy PR-texnologiyalar va ommaviy axborot kommunikatsiyalarining o'zaro munosabati dialektik jarayondir. Buni siyosiy PR-texnologiyalar bo'yicha taniqli mutaxassislar ukrainalik D.K.Olshanskiy va V.F.Реньков: «Siyosiy PR ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiya sohasida amal qiladi» [9, B. 105], deb aniq-ravshan qayd etganlar. Shuning uchun siyosiy PR-texnologiyalardan ezgulik maqsadlarida ham, yovuzlik maqsadlarida ham foydalanish mumkin. Bu esa “siyosiy marketing texnologiyalari” degan terminni muomalaga kiritishga imkon beradi.

XULOSA

Eng xavfli – milliy mustaqillikka, milliy rivojlanishga tahdidlar shakllanadi. Bu jihatni taniqli siyosatshunos N.Jo'rayev to'g'ri baholab, “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da bu jihat bejiz nazarda tutilmaganligini ta'kidlaydi. Jumladan, u quyidagi talablarning strategik va metodologik ahamiyatini alohida uqtiradi: “Birinchi, demokratik davlat boshqaruv mezonlarini belgilovchi printsiplarni hayotga sobitqadamlik va jadallik bilan joriy etib borish. Bular – boshqaruvda inson huquq va manfaatlarining ustuvorligi, hokimiyatlar taqsimlanishi (shu jumladan, davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar o'rtasida vakolatlarining oqilona taksimlanishi), qonun ustuvorligi, davlat boshqaruviga xalq ommasi hamda fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb etish, davlat boshqaruv organlari faoliyatining oshkoraligi va ochiqligi kabi tamoyillardir.

Ikkinchidan, davlat boshqaruv apparati faoliyatining qonunchilik, huquqiy bazasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirib borish nazarda tutiladi.

Uchinchidan, ijroiya hokimiyati tizimidagi boshqaruv bilan shug'ullanuvchi organlarning tarkibiy tuzilmasi va funktsiyalarini ratsionallashtirish ma'muriy islohotning muhim vazifasi hisoblanadi. Bunda davlat boshqaruvida muvoziy tuzilmalarning bo'lishi va bir-birining vazifalarini takrorlashning mavjud bo'lishini bartaraf etib borish talab etiladi.

SIYOSAT

To'rtinchidan, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini ta'minlovchi samarali mexanizmlarni yaratish, ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini faollashtirish zarur" [10, B. 51].

Yuqoridagi tahlillardan siyosiy PR-texnologiyalarning asosiy funktsiyalari gnoseologik, tarbiyaviy, aksiologik, nazorat qiluvchi, manipulyativ va yo'naltiruvchi funktsiyalar degan xulosaga kelish mumkin. Shu nuqtai nazardan, siyosiy PR-texnologiyalar davlatning, xalqning tanlagan strategik yo'lida bardavomligini va faoliyatining samaradorligini belgilovchi ishonchli omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun «kim axborotga egalik qilsa, jamiyatga egalik qiladi» degan ibora qanchalik emotsional bo'lsa, shunchalik ratsional hamdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (25.01.2020). — URL: <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
2. Анализ состояния и перспектив развития Интернет в Республике Узбекистан: Информационно-аналитический отчёт / Узбекское агенство связи и информатизации, Программа развития ООН в Узбекистане. — Т.: ПРООН, 2009. — URL: <http://infocom.uz/wp-content/files/otchet.pdf>
3. Саидходжаев С., Кучкаров А. Роль информационно-коммуникативных технологии в развитии общества // Халқаро муносабатлар — Международные отношения. — 2006. — №1.
4. Ольшанский Д.В. Политический PR. — М.: Питер, 2003.
5. Conte Ch. Angels in the Newsroom // Governing. — 1996. — № 11.
6. Муитов Д. Геосиёсат ва журналистика. — Т.: «Turon-Iqbol», 2017.
7. Ницше Ф. Сочинения. Т. 1. — М.: Мысль, 1990.
8. Феннер К. Политическая культура // Политология: Краткий тематический словарь. Вып. 1. — М.: РАУ, 1992.
9. Ольшанский Д.К., Пеньков В.Ф. Политический консалтинг. — СПб.: Питер, 2005.
10. Жўраев Н. Тамаддунга даъват. — Т.: «O'zbekiston», 2018.